**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA’LIMI VAZIRLIGI**
**FARG‘ONA VILOYATI PEDAGOGLARNI YANGI METODIKALARGA O‘RGATISH MILLIY MARKAZI ILMIY-METODIK KENGASHINING 9-YIG‘ILISHI BAYONNOMASINDAN KO‘CHIRMA**

**2022-yil 22-noyabr** **Farg‘ona shahri**

| | |
|---|---|
| **Kengash a’zolari:** | **21 nafar** |
| **Qatnashdi:** | **21 nafar** |
| **Yig‘ilish raisi:** | **F.Saxibova** |
| **Yig‘ilish kotibi:** | **G.Ergasheva** |

**Kun tartibidagi masala:**

**Pedagogika markazi o‘qituvchisi Z.A.Teshaboyev tomonidan tayyorlangan “O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish” nomli o‘quv qo‘llanmani nashrga tavsiya etish to‘g‘risida.**

**Eshitildi:** Pedagogika markazi direktori F.Saxibova so‘zi.

U o‘z so‘zi orqali Pedagogika markazi o‘qituvchisi Z.A.Teshaboyev tomonidan tayyorlangan “O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish” nomli o‘quv qo‘llanma haqida ma’lumot berib, ushbu adabiyotni O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi ruxsatnomasini olishga tavsiya qilish taklifini kiritdi.

Taklif bir ovozdan ma’qullandi.

Ushbu masala yuzasidan

**QAROR QILINDI:**

1. Pedagogika markazi direktori F.Saxibovaning axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.
2. Pedagogika markazi o‘qituvchisi Z.A.Teshaboyev tomonidan tayyorlangan “O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish” nomli o‘quv qo‘llanma O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi huzuridagi muvofiqlashtiruvchi Kengash grifini olish uchun tavsiya etilsin.
3. Pedagogika markazi o‘qituvchisi Z.A.Teshaboyev tomonidan tayyorlangan “O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish” nomli o‘quv qo‘llanmada boshqa o‘quv adabiyotlaridan ko‘chirmachilik qilinmaganligi alohida ta’kidlansin.
4. Pedagogika markazi o‘qituvchisi Z.A.Teshaboyev tomonidan tayyorlangan “O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish” nomli o‘quv qo‘llanma o‘quv adabiyotlari yaratish bo‘yicha “ Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muasssasalarini Davlat ta’lim standartlariga muvofiq takomillashtirilgan me’yoriy va uslubiy hujjatlar hamda zamonaviy o‘quv adabiyotlari bilan ta’minlash to‘g‘risida”gi 137-sonli buyruq talablariga javob berishini inobatga olib, nashrga tavsiya etilsin.
5. Pedagogika markazi o‘qituvchisi Z.A.Teshaboyev tomonidan tayyorlangan “O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish” nomli o‘quv qo‘llanma fanlar bo‘yicha 100 nusxada zarurligi inobatga olinsin.
6. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish o‘z zimmamda qoldirilsin.

“Ko‘chirma asliga to‘g‘ri”

| | |
|---|---|
| **Yig‘ilish raisi, direktor:** | **F.Saxibova** |
| **Yig‘ilish kotibi:** | **G.Ergasheva** |